

IJTIMOIY TARMOQLAR VA XAVFLAR

*Ahmedov Abdulhay Toshto'xtayevich,
Jabborova Sayyoraxon Muhammadqobilovna,
Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o`qituvchilari
Abdurasulova Muxlisabonu Ibrohimjon qizi,
Salimova Zilolaxon Avazbek qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
filologiya fakulteti
o`zbek tili va dabiyoti yo`nalishi
1-bosqich talabalari*

ANNOTATSIYA: *Ayni vaqtda ijtimoiy tarmoqlar siyosiy ong va madaniyatni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon hayotimizda o'z aksini topmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat yoshlarning asosiy vaqtini o'tkazuvchi, balki ommaviy axborot vositalarining o'rnini bosuvchi vositaga aylandi. Endi odamlar biror voqea sodir bo'lsa, ushbu xabarni internet orqali an'anaviy ommaviy axborotda e'lon qilinmasidan oldin olmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar haqida tushuncha, undagi ma'lumot turlari va ularning xavflari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoq, siyosiy ong, madaniyat, axborot, ommaviy axborot vositasi, internet.*

АННОТАЦИЯ : *В то же время социальные сети приобретают большое значение в формировании политического сознания и культуры. Этот процесс отражается на нашей жизни. Например, социальные сети стали не только способом времяпрепровождения молодежи, но и заменой средствам массовой информации. Теперь, когда что-то происходит, люди узнают новости через Интернет до того, как об этом будет объявлено в*

традиционных СМИ. В данной статье рассказывается о понятии социальных сетей, видах информации и их опасности.

Ключевые слова: *социальная сеть, политическое сознание, культура, информация, средства массовой информации, интернет.*

ANNOTATION : *At the same time, social networks are becoming increasingly important in the formation of political consciousness and culture. This process is reflected in our lives. For example, social networks have become not only a means of spending the main time of young people, but also a means of replacing the media. Now, when an event occurs, people receive this information via the Internet before it is published in traditional media. This article discusses the concept of social networks, the types of information in them and their dangers.*

Keywords: *social networks, political consciousness, culture, information, media, internet.*

KIRISH. **Ijtimoiy tarmoq** — bu qiziqishlari o‘xshash yoki oflayn aloqaga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko‘ngilochar va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma¹.

XXI asrda ma’naviy, mafkuraviy va axborot omillarining ta’sir kuchi moddiy va moliyaviy resurslarga nisbatan ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda. Ushbu jarayonda shu paytgacha asosiy rol ni ommaviy axborot vositalari bajargan bo‘lsa, bugun bu vazifani ijtimoiy tarmoqlar to‘laqonli ravishda bajarib kelmoqda.

Ammo bir qancha ijobiy tomonlari bilan birga ijtimoiy tarmoqlarning xavfli tomonlari ham kun sayin ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan keng jamoatchilikning qiziqishiga sabab bo‘layotgan, ba’zi o‘rinlarda tashvishga solayotgan, inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga o‘zini yetarlicha ta’sirini ko‘rsatayotgan ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi, ayni paytda dunyo miqyosida ommalashuvi va albatta uning salbiy jihatlari alohida tadqiq qilishni talab etadigan masaladir.

¹ www.wikipedia.uz

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2020-yilda O'zbekiston aholisining soni 34 milliondan ortiq bo'lib, internet foydalanuvchilarning soni 22 millionga yetdi.

Ularning 85 foizidan ortig'i ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Yuqoridagi ko'rsatkichlardan shuni xulosa qilish mumkinki, bugungi kundagi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari juda katta auditoriyani tashkil etadi.²

Bugun dunyoda jadal sur'atlar bilan axborot urushlari ketmoqda. Bu urushdagi qurol ham, qalqon ham faqat axborot, faqat ma'lumotdir. Axborotlar makoni esa internetdir. Ijtimoiy tarmoqlar esa barcha turdagi axborotlarni tarqatishning eng qulay vositachisi hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning asosiy ustunligi muloqot erkinligi hisoblanadi.

Buning oqibatida ijtimoiy tarmoqlardan kelayotgan xavflar bugun har bir mamlakat uchun global muammoga aylandi. Shu nuqtai nazardan bir narsani ta'kidlab o'tish lozim. Axborot xavfsizligi, bugungi kunda milliy xavfsizlikning muhim bir qismidir. Ijtimoiy tarmoqlarni mutlaqo nazoratsiz qo'yish real dunyoda ko'plab buzg'unchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Diniy ma'lumotlar. Tarmoqlarda tarqalgan, ammo joiz bo'lmagan «Agar mo'min bo'lsang, ushbu ma'lumotni tarqat!», «Agar Allohni yaxshi ko'rsang, ushbu ma'lumotni tarqat!», «Agar ushbu ma'lumotni tarqatmasang, gunohlaring seni bu ishdan to'xtatgan bo'ladi!», «Agar ushbu ma'lumotni tarqatmasang, og'ir kasallikka duchor bo'lasan!» kabi iboralar shaklida uchraydi.

Siyosiy ma'lumotlar. Ijtimoiy tarmoqlarda turli siyosiy chaqiriqlar uchraydiki, ularda sizga o'zingiz yashab turgan mamlakat siyosatini noto'g'ri deb singdirishga, amaldagi siyosiy tuzumga qarshi kurashishga, uning o'rniga diniy va aksincha, eski sho'ro tuzumidagi davlat qurishga hamda davlatning siyosiy shaxslarini obro'sizlantirishga urinuvchi guruhlarining mavjud.

Ommaviy madaniyat haqidagi ma'lumotlar. Ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy madaniyat targ'iboti ham juda faol olib boriladi. Ular asosan video

² www.stat.uz

rolik, elektron surat va qo‘shiqlar ko‘rinishida bo‘ladi. Ularda milliyligimizga zid bo‘lgan yod g‘oyalar, begona urf-odatlar, mentalitetimizga mutlaqo nomunosib madaniyatlar yoshlar g‘oyasiga singdirilishiga harakat qilinadi.

Ommaviy madaniyatning shaxs erkinligi niqobi ostida tarqalishi mamlakat yoshlarining o‘z xalqi urf-odatlarining yo‘qotilishi, milliyligining unutilishi, ayniqsa

o‘zbek xalqiga mos bo‘lgan sharmu hayoning, mehr oqibatning, nomus, sha’n va oilaviy munosabatlarning qadsizlanishiga olib keladi.

Afsuski, bunday holatlarga yurtimizda ham guvoh bo‘lmoqdamiz.

Millatchilik va mahalliychilik ruhidagi malumotlar. Millatchilik va mahalliychilik g‘oyalari ijtimoiy tarmoqlarda juda ko‘p uchraydi. Ular asosan so‘rov tarzida o‘tkazilib, quyidagicha savollar qo‘yiladi: «Millating kim?», «Seningcha qaysi millat kuchli?», «Qaysi millat ko‘proq?», «Qayerdansen?».

Avvalo millat va xalq tushunchalarini yaxshilab anglab olishimiz kerak. Bitta til va madaniyatga ega bir etnik guruhdagi odamlar bu millatdir. Bir necha etnik guruhlardan iborat, ma’lum yashash hududiga ega, umumiy bir til va umumlashgan madaniyatga ega odamlar esa xalqdir.

O‘zbek xalqi tarkibiga mamlakatimizda yashovchi har bir millat vakili kiradi, biz birlashib bir xalqimiz. Bizning xalqimiz uchun esa millatchilik degan tushuncha mutlaqo begonadir. Shu kungacha xalqimiz birorta millatga nisbatan g‘arazlik qilmagan. Millatchilik ruhi bizning mamlakatimizda uchramasa-da, tarmoqlardagi bu kabi g‘oyalar virtual tarzda bo‘lsa-da, foydalanuvchilar o‘rtasida nizo keltirib chiqaradi. Eng xavflisi esa bu virtuallik reallikka aylanib ketishidir.

Axloqsizlik, fahsh, buzqlikni targ‘ib qiluvchi ma’lumotlar. Axloqsizlik, fahsh, buzqlikni targ‘ib qiluvchi saytlar va ularning sahifalari keng yoyilgani yosh avlodning ma’naviy ongini buzishga olib keladi.

Vahimali ma’lumotlar. Vahimali ma’lumotlar internet foydalanuvchilari o‘rtasida juda tez tarqaladi. Bu kabi ma’lumotlarda mintaqaviy yoki global miqyosda insonlar hayotida keskin, qutqarilib qolish o‘ta mushkul va hatto iloji

yo‘q bo‘lgan voqelik bo‘lishi mumkinligi haqida mish-mishlar tarqatiladi. Bunday mishmishlardan maqsad ma’lum bir mamlakat yoki mintaqa aholisida targ‘ibot orqali mamlakatda notinchlik tug‘dirish va moddiy manfaatdorlik ko‘rishdir.³

Bugun dunyoda siyosiy va diniy radikalizm, ekstremizm, qurol va odam savdosi, terrorizm, og‘ufurushlik, etnik hamda millatlararo ziddiyatlar ijtimoiy tarmoqlar orqali vujudga kelayotganiga bejiz alohida e’tibor qaratilmayapti.

Shu mavzu nuqtai nazaridan bir narsani alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, ijtimoiy tarmoqlarning mamlakat xavfsizligi va barqarorligidagi roli ortib bormoqda.

Liviya, Misr, Ukraina, Suriya, kabi mamlakatlarda ro‘y bergan mudhish voqealarning boshlang‘ich qo‘zg‘atuvchi nuqtasi ijtimoiy tarmoqlar deb ko‘rsatilmoqda. Bu bejiz emas, yuqoridagi mamlakatlar yoshlariga internet orqali avvaliga chetdan turib «demokratiya» qurishga ko‘maklashuvchi «xolislar» yoshlarda amaldagi tuzumga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg‘otgan.

Bunday muammolarni bartaraf etish maqsadida filtrlarni qo‘llash va internetdan foydalanishni cheklash doim ham ko‘zlangan maqsadga olib kelmaydi. Bu borada e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihat, avvalo, axborot tarqatishga mo‘ljallangan saytlar faoliyatini takomillashtirish, milliy elektron axborot resurslarimizni boyitish va milliy ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish zarur bo‘ladi. Hozirda g‘oyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy, badiiy, sport, harbiy-vatanparvarlik va boshqa yo‘nalishlarda milliy axborot resurslarini rivojlantirish asosiy talabga aylangan. Chunki axborot ummonida asosiy ob’ekt inson ongi hisoblanadi.

Ko‘pchilik ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirgan ma’lumotlarini har kim topishi va har doim ham yaxshi niyat bilan ishlatmasligi mumkinligini anglamaydi. Ijtimoiy tarmoqlardagi shaxs haqidagi ma’lumotlarni ularning ish beruvchilari, qarindoshlari, qarz yig‘uvchilar, jinoyatchilar va boshqa manfaatdor

³ Ergashevich, E. A. (2023). Internet tarmog‘i axborot xurujlari

shaxslar topishlari mumkin. Sud ijrochilari baʼzan ijtimoiy tarmoqlardan qarzdorlarni topish yoki ularning mulki haqida maʼlumot olish uchun foydalanadilar.

Baʼzi ish beruvchilar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni taʼqiqalaydi — nafaqat iqtisod nuqtai nazaridan, balki maʼlumotlarning tarqalishini oldini olish uchun ham.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari haqorat, tanqid, “nomaqbul sharhlar” va asossiz mish-mishlarga duch kelishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishga qaramlik tufayli psixosomatik kasalliklar paydo boʻlishi holatlari kuzatilgan — Belgradda foydalanuvchi Snejana Pavlovich (Snezhana Pavlović) “Facebook” ijtimoiy tarmogʻidagi qaydi uning onlayn-doʻstlari orasida qiziqish uygʻotmaganidan keyin psixiatriya klinikasiga yotqizilgan. Klinika shifokorlari ushbu holatni “Snejana sindromi” deb atashdi va bemorning xatti-harakatlarini zamonaviy dunyoda shaxsning ijtimoiy ehtiyojlarini qoniqtirilmasligidan kelib chiqqan oddiy stress deb izohladilar.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xavfi mavzusi turli ilmiy maqolalarda yoritilgan, jumladan:

✓ D. Boyd AQShning 16 shtatidagi soʻrovnoma materiallariga asoslanib, ijtimoiy tarmoqlardan kelib chiqadigan ikkita asosiy “qoʻrquv” bor, degan xulosaga keldi: jinsiy zoʻravonlik va maʼlumotlarning maxfiyligi.

✓ Daniyada davriy nashrlarning mazmunini tahlil qilib, M. Larsen eng koʻp tilga olinadigan ijtimoiy media muammolari roʻyxatini tuzadi, jumladan: jinsiy zoʻravonlik va pedofiliya, qoʻrqitish va taʼqib qilish, tahdid va zoʻravonlik, millatchilik gʻoyalari tarqalishi.

✓ K. Fuks nemis va avstriyalik talabalar orasida oʻtgan onlayn soʻrovnomadan quyidagi xavflar roʻyxatini oldi: maʼlumotlarning maxfiyligi, spam, shaxsiy maʼlumotlarni yoʻqotish ehtimoli, salbiy imidj yaratish, internetga qaramlik.

✓ S. V. Bondarenko Rossiya janubidagi virtual tarmoq hamjamiyatlarini o‘rganib, deviant xatti-harakatlarning quyidagi shakllari mavjud degan xulosaga keldi: xakerlik, maxfiylikni buzish, tuhmat, kiberterrorizm, kompyuter pedofiliyasi.

✓ GU-VShE portalida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning fikriga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar odamlarni “o‘z domiga tortib ketmoqda” va juda ko‘p vaqt oladi, jonli aloqani siqib chiqarmoqda va “keragidan ortiq muloqot va ma’lumotlar” bilan ta’minlab beradi. *"Maxfiylik masalalari, — deyiladi hisobotda, "ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarini eng kam tashvishga solmoqda. Bu turdagi qo‘rquvlar maxfiy xizmatlarning ishi bilan emas, asosan, spamerlar kontakt*

ma’lumotlariga oson ega bo‘lishi imkoniyati mavjudligi bilan bog‘liq".⁴

✓ *"Internet kengliklarida ijtimoiy tarmoqlar avtopoyezisi" asarida ijtimoiy tarmoqlar psixologik rekursiyalarni qanday taqsimlashi, birlashtirishi va qolipga solishini tasvirlab berdi; ular shaxsiy hayotning tobora ko‘payib borayotgan elementlarini o‘zaro aloqalarning universal umumiy maydoniga o‘tkazish orqali psixikada modellashtirilgan kodni sarflaydilar.*

Ba’zi ommaviy axborot vositalari ijtimoiy tarmoqlarda “o‘lim guruhlari” faoliyat yuritishini ta’kidlaydilar, ular o‘z joniga qasd qilishni targ‘ib qiladi va bolalarni o‘z joniga qasd qilishga undaydi. 2016-yilda Rospotrebnadzor hayotni ixtiyoriy ravishda tark etishni tashviqot qiluvchi va uning turli usullarini tavsiflovchi

materiallarning uchdan biridan ko‘prog‘i VKontakte ijtimoiy tarmog‘ida to‘planganligini aytdi. 2017-yil 7 iyundan boshlab Rossiyada Internetda „o‘lim guruhlari“ ni tashkil etganlik uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun kuchga kirdi, u 6 yilgacha qamoq jazosini ko‘zda tutadi. VKontakte ijtimoiy tarmog‘ining yaratuvchisi Pavel Durov DLD konferensiyasida bergan intervyusida internettrolling muammolarini aytib o‘tdi va ularni Telegramning tayyor server

⁴ GU-VSHE portali

yechimlari va protokollaridan foydalangan holda LiveOnce yangi ijtimoiy tarmog'ini yaratish orqali hal qilishga va'da berdi.

XULOSA. Agar fuqarolarning axborot ehtiyoji qondirilmasa, u boshqa manba qidiradi, uni boshqalar qondiradi. Natijada axborot oluvchi internetning salbiy axborotlar ummoniga kirib qolishi mumkin.

Shuning uchun ham asosiy axborot manbaiga aylanib borayotgan ijtimoiy tarmoqlarga katta e'tibor qaratishimiz va milliy ijtimoiy tarmoqlarimizni rivojlantirishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergashevich, E. A. (2023). Internet tarmog'i axborot xurujlari.
2. Ergashevich, E. A. (2023). Talaba yoshlar mediasavodxonligi-davr talabi.
3. Ergashevich, E. A. (2023). Internet Tarmog 'i xizmat turlarining zamonaviy tahlili. Journal of innovation in education and social research, 174-176.
4. Ergashevich, E. A. (2017). Implementation of modern pedagogical technologies in the process of training sessions. Asian journal of multidimensional research (AJMR), 37-47.
5. GU-VSHE portali
6. www.wikipedia.uz
7. www.stat.uz